



KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDA DIQQATNI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOSLIGI

Davronbek Nomozov,
Guliston Davlat Pedagogika Instituti I
bosqich magistri
E-mail: nomozovdavron78@gmail.com
Tel: (91) 100 16 00

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda diqqatni rivojlantirishning psixologik hususiyatlari yoritilgan. Jumladan maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida yosh avlodga turli interfaol metodlar, turli interaktiv va innovatsion uslublar qo'llash bugungi kunda har bir pedagog oldida turgan o'ta mas'uliyatli vazifadir.

Kalit so'zlar: o'yin, ta'lim-tarbiya, diqqat, idrok, xotira.

Abstract: This article describes the psychological features of attention development in students of primary school age. Applying various interactive methods, various interactive and innovative methods to the young generation, including in schools and pre-school educational institutions, is a very responsible task facing every pedagogue today.

Key words: game, education, attention, perception, memory.

Аннотация: В данной статье описаны психологические особенности развития внимания у учащихся младшего школьного возраста. В частности, применение различных интерактивных методов, различных интерактивных и инновационных методов к подрастающему поколению в школах и дошкольных образовательных учреждениях является очень ответственной задачей, стоящей сегодня перед каждым педагогом.

Ключевые слова: игра, обучение, внимание, восприятие, память.

KIRISH

Ma'lumki, barchamizning ertangi kunimiz yosh avlod qo'lida. Bugungi kunda muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan bolalarga ayniqsa bog'cha va boshlang'ich yoshdagi bolalarga davlat siyosati darajasida qarab kelinmoqda. Jumladan maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida yosh avlodga turli inter faol metodlar, turli interaktiv va innovatsion uslublar qo'llash bugungi kunda har bir pedagog oldida turgan o'ta ma'sulyatli vazifadir.

Mamlakatimizda ta'lim sifati yuqori darajada rivojlanayotgan bir paytda har bir pedagog oldida turgan katta muammolardan biri qanday qilib o'quvchilarni e'tiborini o'tilayotgan mashg'ulotga tortish va ularning diqqatini dars jarayoniga to'g'ri va samarali jalb etishdan iborat. Axborot almashinuvining tezligi tufayli bugun yoshlar e'tibori har qanday yangilikka o'ch va e'tiborlari tez chalg'uvchan bo'ladi. Bolaning kichik maktab yoshi boshlang'ich sinflarda o'qish yillariga to'g'ri keladi. O'yin faoliyatidan o'qish faoliyatiga o'tish oldidan bola o'z hayotining eng muhim davriga, ya'ni maktab tomonidan qo'yiladigan turli-tuman



talablarni bajarishga, boshqacha qilib aytganda, ta'lim olishga ham psixologik, ham jismoniy jihatdan tayyor bo'ladi. Bu jarayonda o'qituvchidan juda katta bilim va ko'nikma talab qiladi. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchini har xil o'zgaralilik bilan diqqat markazidan chalg'itmasliklari kerak. Bu o'qituvchi va pedagogik xodimlar olib borishlarimuhim vazifalardan biri bo'lsa, ba'zi hollarda o'qituvchidan bolalar fikrini nazorat qilib, ular bilan turli o'yinlar o'tkazib turishlik ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu yoshdagi bolada idrokning o'tkirligi va sofligi, qiziquvchanligi va hayolining yorqinligi hammaga ma'lum. Bu holatlar bolaning o'yinida, rasm chizishida, loy va plastilindan narsalar yasash ishlarida, oddiy qurish-yasash mashg'ulotlarida yaqqol kuzatiladi. Bu paytda bolaning xotirasiham yetarli darajada rivojlangan va kuchli bo'ladi.

Ulug' rus pedagogi K.D.Ushinskiy ishlarida diqqat to'g'risida bir qator fikrlar aytilgan. K.D.Ushinskiy «Diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona bir eshigidirki, ongingizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi», - deb yozgan edi. Diqqat ob'ektni to'la va aniq idrok qilish qobiliyatiga ega. Ziyraklikning qator sabablariga oldin idrok qilingan ob'ekt izlarining ahamiyatidan tashqari K.D. Ushinskiy "ta'sirotning kuchi va to'plangan aktlarni boshqara olishni ko'rsatadi". Bolaning rivojlanishi uchun diqqatini to'g'ri yo'naltiraolish muhimligini ko'rsatib o'tadilar. Diqqatning to'laligi, barqarorligini ta'minlovchi to'planishning psixologik mexanizmlarini muhokama qilish ham K.D.Ushinskiyning asarlarida uchraydi. U diqqatning asosiy omili irodaviy boshqarish deb hisoblaydi. Shuning uchun diqqatni maqsadga yo'naltirib, boshqara olish qiyin va murakkab jarayondir. K.D.Ushinskiyning ko'rsatishicha, kishi o'z hissiyotlarini diqqat orqali boshqaradi, bunda u ixtiyoriy yoki faol turlarga ajratadi. Uningcha, ixtiyoriy diqqat bizning tomonimizdan zo'r berish orqali o'ziga predmet tanlaydi. Ixtiyoriy diqqatni ob'ektivlashtirish faol xarakterdan biridir. Chunki u kishining o'zi orqali qo'zg'atiladi va qo'llaniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ta'lim jarayonida ixtiyorsiz diqqatning o'sishi uchun muhim shart-sharoitlar mavjuddir. Kichik maktab yoshi davridagi o'quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi o'quvchida beixtiyor his-tuyg'u uyg'otishi, shuningdek, bola ortiqcha zo'riqishsiz osongina fan asoslarini egallashi mumkinligi boshqa tadqiqotlarda aniqlangan. Chunonchi, o'quv materiallarining turli tumanligi ixtiyorsiz diqqatning to'planishi va barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Ixtiyorsiz diqqat ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishi bilan bog'lanib ketsa, tabiiyki ular faqat maroqli, quvonchli axborot va



matnlar bilan tanishishga intiladilar. Bu jarayonda asosiy vazifa yuqoridagi holatlarni tuzatish, ya'ni korreksiya qilish yo'llarini topishdir. Agar bu holat o'z vaqtida korreksiya qilinmasa, bunda tormozlanish bilan qo'zg'alish o'zaro nomuvofiq harakat qiladi [1].

O'qish holatlarida tutilish, to'xtab qolish, tovushning tebranishi vapasayishi, ba'zida harf, ibora va gaplarning tushib qolishi hollari mana shu fiziologik mexanizm ta'sirida paydo bo'lishi psixologik tadqiqotlarda aniqlangan. Bu sohada o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, bosh miyasi shikastlangan bolalar nafaqat moslashuvda qiyinchilik his etadilar, balki chegaralangan ishlash qobiliyatiga ham ega. Bunday bolalarning ta'limi, mehnat faoliyati sharoitlari va xulq-atvori qanchalik puxta o'rganilgan bo'lsa, ularning atrofidagi: muhitga nisbatan yuqori sezuvchanlikka egaligi shuncha yaqqolroq ko'ringan. Bola o'zining qiziqishlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan narsalarni osonlik bilan mustahkam esda olibqolish imkoniyatiga ega bo'ladi. U o'z tajribasidan biladiki, nimanidir yaxshi esda olib qolish uchun uni bir necha martalab qaytarish kerak. Lekin, ma'nosiga tushunib esda olib qolishning samaradorligi biroz pastroq bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy foydali mehnatga nisbatan ham qiziqish va ishtiyoq, kattalarga taqlid qilgan holda jismoniy xatti- harakatlar va mashqlar bajarishga nisbatan moyillik kuchli bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, bolada maktab ta'lim-tarbiyasini olish uchun fiziologik imkoniyatlar ham rivojlangan bo'ladi.

Demak, bolamiz har jihatdan, ham psixologik, ham fiziologik tomondan maktab ta'lim-tarbiyasini olish imkoniyatiga ega. Shunday ekan, o'quvchilarning keyingi bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish, ular ongini o'stirish uchun, albatta, psixologik jihatlarini rivojlantirish kerak. Bu o'rinda, bolalarning diqqati, tafakkuri eng muhim psixologik jarayonlardir. Maktabga endigina qadam qo'ygan bolada diqqatning birinchi turi- ixtiyorsiz diqqat ustun bo'ladi. Uning diqqati tez bo'linishini, chalg'ishini, o'zini bir joyga ushlab turolmasligini kuzatish mumkin. Shunday paytda bola uchun muhim va qiziqarli bo'lgan narsalarni unga ko'rsatish, bu narsalarning shakli, ko'rinishi, joylashgan o'rni, katta-kichikligi, bir-biridan farqi va rangiga nisbatan bolaning diqqat-e'tiborini kuchaytiradi. Endi esa bola bu narsani sinchiklab o'rganish davomida narsaga nisbatan ongini bir nuqtada ushlay oladigan bo'ladi. Natijada bu narsaning nima uchun xizmat qilishini, qanday ishlatilishini ham o'rganadi. Aynan bunday tadbirlar bola xotirasining rivojlanishi uchun ham yordam beradi. Buni amalga oshirish uchun, albatta, psixologik mashq va treninglardan foydalanamiz. Quyida diqqatni shakllantiruvchi



mashqni va uni o'tkazish tartib-qoidalarini ko'rsatamiz.

1-MASHQ. 1.O'quvchiga bir to'da yovvoyi jonivorlarning rasmini bir vaqtda ko'rsatamiz. Bularning ichida qaysilari qushlar, qaysilari yirtqichlar, qaysilari sudralib yuruvchilar ekanligini ajratib berishini so'raymiz. Keyin esa bu jonivorlarning qayerda yashashini, nima bilan oziqlanishini ham so'rab, o'quvchi tafakkuri rivojlanishi uchun ham turtki beramiz.

NATIJA: Har qanday kichik maktab yoshidagi o'quvchi, u xoh o'g'il bola bo'lsin, xoh qiz bola bo'lsin yovvoyi jonivorga albatta qiziqadi va bu narsa ularni o'ziga jalb etadi. Natijada o'quvchi ongi bir nuqtaga qaratiladi va qisman bo'lsada fikrlashga undaladi.

2-MASHQ. O'quvchiga bir vaqtning o'zida ichida 3-4 tacha o'yinchoqlar bo'lgan bir qancha narsalarni ko'rsatamiz. Tabiiyki, narsalar ichidagi 3-4 ta o'yinchoq kichik maktab yoshidagi bolaning diqqat-e'tiborini tezda o'ziga tortadi. O'yinchoqlar har joyda joylashgan bo'lsa ham bola ularning hammasiga bir vaqtning o'zida ongini qaratadi va hammasiga intiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Maqsad o'quvchini o'yinchoqlarga qiziqtirish emas. Bu mashq ularda bir vaqtning o'zida bir nechta predmetlarga diqqatni qaratishdan iborat bo'lgan ixtiyoriydan so'ngi, ya'ni avtomatlashgan diqqatning shakllanishi uchun yordam beradi. Inson psixologiyasining eng oliy tushunchalaridan biri bo'lgan murakkab psixologik jarayon-tafakkurning rivojlanishi uning shaxs sifatida namoyon bo'lish shartlaridan biridir. Shunday ekan, fikrlash, dunyoqarash, ya'ni tafakkuri yoshlikdan, ayniqsa, kichik maktab yoshidan boshlab shakllantirish, uni o'stirish kerak.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. A.I.Rasulov, L.S.Tursunov. Eksperimental psixologiyadan praktikum. Toshkent-2010
2. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. T. 2012
3. Adizova T.M., Tulaganova G.K. Maktab psixologining o'zlashtira olmovchi boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan amalga oshiradigan psixologik- korreksion ishlari. Maktabda psixologik xizmatini tashkil qilish muammolari. -T.: TDPU. 2014.
4. Nishanova Z.T., Qarshiyeva D., Atabayeva N., Qurbonova 3. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. - T., 2014
5. F.I.Xaydarov. N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya. T. 2019 yil 125-b.
6. <https://fayllar.org/kichik-maktab-yoshdagi-bolalar-diqqatining-rivojlanish-jarayon.html>